

KONSEPTUAL METAFORA VA UNING O‘ZBEK VA INGLIZ TILLARIDA NAMOYON BO‘LISHI

Muminov Sidikjon Mersobirovich

professor, filologiya fanlar doktori,

Farg‘ona davlat universiteti,

Farg‘ona, O‘zbekiston

siddiqjon.mominov@bk.ru

Mahfuza Nishonboyeva

FarDU magistranti,

Farg‘ona, O‘zbekiston

mahfuzahoshimova1@gmail.com

ANNOTATSIYA

Nutqda metaforalardan keng foydalanish fikrlarimizni ta’sirchan, jozibali qiladi. So‘zlovchining tinglovchilarga badiiy-estetik qobiliyatini namoyon etadi. Metaforalarning shunday turi borki u nafaqat tilning uslubiy xususiyati, balki bu fikrning o‘zidir ya’ni inson ongida avtomatik tarzda ishlab chiqariladigan fikrlar majmuasidir. Bu konseptual metaforadir. U ham badiiy adabiyotda ma’lum janrlarni shakllantiruvchi, shoir-u yozuvchilarning eng muhim badiiy quroli, ham barcha til foydalanuvchilari uchun eng neytralidir. Bunday metafora nafaqat dunyodagi ma’lum bir vaziyat haqida xabar berish, gapirish uchun balki, u haqida o‘ylash uchun ham ishlatamiz. Shuning uchun ham u oddiy metaforalardan farqlanadi. Ushbu maqolada konseptual metaforalarda konseptning o‘rni hamda uning qo‘llanilish maqsad va vazifalari ikki qardosh bo‘lmagan tillar solishtiruvi asosida misollar bilan yoritib berilgan.

Kalit so‘zlar: konseptual metafora, konseptual fenomenona, domen: manba va madsadli domen, maqsad (Target) domeni, resurs yoki manba (Source) domeni, domenlararo xaritalash.

Aristotel shunday deydi – “Oddiy so‘zlardan biz faqatgina yangi ma’noni tushunishimiz mumkin. Metafora esa uni to‘liq tasirchan qilib tinglovchiga yetkazish yoki anglash uchun muhim ahamiyat kasb etadi” deb hisoblagan.

Konseptual metafora nazariyasi dastlab 1980-yil Jorj Lakoff hamda Mark Jonsonlarning “Biz bilan yashayotgan metafora”(Metaphors We Live By)¹ nomli

¹ Vyvyan Evans and Melanie Green. "Cognitive Linguistics An Introduction" EDINBURGH UNIVERSITY PRESS

asarida taklif qilingan. Kontseptual metafora nazariyasining asosiy maqsadi, metafora nafaqat tilning uslubiy xususiyat, balki bu fikrning o'zidir ya'ni inson ongida avtomatik tarzda ishlab chiqariladigan fikrlar majmuasidir. Ushbu nuqtai nazarga ko'ra, kontseptual struktura o'zaro bog'liqliklarni yoki o'zaro konstruktiv domenlar o'rtasidagi yozishmalarga muvofiq tashkil etiladi.

Lakoff va Jonson o'zining ushbu asarida shuni ma'lum qiladiki, kontseptual metafora nafaqat badiiy adabiyotda ma'lum janrlarni shakllantiruvchi, shoir-u yozuvchilarning eng muhim badiiy quroli, balki barcha til foydalanuvchilari uchun eng neytralidir. Ko'plab tadqiqotchilar kontseptual metaforada ish olib borayotgan vaqtda, bunday ko'chi turini asosan tele va radio programmalarida, lug'at, gazeta hamda jurnallardan, suxbatlarda topganlar. Ammo keyinchalik Lakoff va Jonson shuni aniqladi metafora biz bilan va u bizni atrofimizni o'rab turgan ko'chim turidir.

Metaforalar o'y-fikrlarda sodir bo'ladi.

Kontseptual metafora nazariyasiga ko'ra, metafora nafaqat til balki fikrlarimizda yashaydi. Biz metafora nafaqat dunyodagi ma'lum bir vaziyat haqida xabar berish, gapirish uchun balki, u haqida o'ylash uchun ham ishlatamiz. Shuning uchun ham u oddiy metaforalardan farqlanadi. Quyidagi jadvalda oddiy va kontseptual metaforaning farqli jihatlari haqida ma'lumot berildi. (qarang: jadval 1).

1-jadval

| Oddiy metafora | Kontseptual metafora |
|---|---|
| So'zlarning ma'no jihatidan ahamiyati Sen mening arslonimsan (Ya'ni jasur, qo'rqmassan) | Konseptlarning ahamiyati Baxs bu jang |
| Tilshunoslikdagi fenomenona | kontseptual fenomenona |
| Ta'sirchanlik va badiiy bo'yqodorlik | Ba'zi bir kontseptlarni yanada yaxshiroq tushunish uchun |
| Ikkita asosning o'zaro bog'liligi | Insoniyat tajribasi G'azab olov |
| Odatda shoirlar va notiqalar tomonidan ta'sirchanlik, notiqlikni oshirish uchun | Kundalik hayotda oddiy odamlar |
| So'zning ko'chma ma'nosi Oltin kuz kirib keldi | O'ylash, harakat va maqsadlar jarayoni mahsuli Vaqt- bu pul. (Time is money) |

Kontseptual struktura o'zaro bog'liqliklarni yoki o'zaro konstruktiv domenlar o'rtasidagi yozishmalarga muvofiq tashkil etiladi. Ya'ni ularning orasida ichki bog'lanish mavjud.

Masalan:

She got a really high mark in the test.

U testda juda baland baho oldi.

Ushbu misolda keltirilgan metafora bu baland soʻzidir. Aslida bu sifat jismonan baland hisoblangan bino yoki odamlar uchun ishlatiladi. Ammo yaxshi baho maʼnosida bu gapda qoʻllangan. Ingliz tilini oʻrganish jarayonida shuni anglasa boʻladiki, kundalik hayotda ishlatilayotgan soʻzlar ham baʼzan obrazli ifodalangan soʻz boʻlib chiqadi. Buni misollarda koʻrib chiqamiz:

1. Things are going smoothly in the operating theatre.

Operatsiya stolida ishlar muammosiz kechmoqda

2. He was in a state of shock after the election result.






Saylov natijasidan keyin u shok holatida edi.

3. The economy is going from bad to worse.¹

Iqtisodiyot yomondan yomonlashib bormoqda.

Yuqorida keltirilgan jumlar kundalik hayotdagi ishlatiladigan harakat, holat, his-tuygʻu, ruhiy holatlar boʻlishi mumkin. Ammo ushbu gapda jismonan amalga oshirilmaydigan holatda qoʻllanilgan. Birinchi gapdagi “going smoothly” birikmasi faqatgina narsalar uchun (boats can go smoothly) kemalar bir maromda keta oladi; yoki ikkinchi misol soʻzma-soʻz tarjima qilinganda u saylov natijasidan keyin shokka tushib qoldi. Bunda “state of shock” birikmasi koʻchma maʼnoda, soʻnggi gapda ham “going from bad to worse” birikmasi aslida jismonan mavjud va harakat qiladigan narsalar uchun qoʻllanilar edi. Biroq badiiylikni oshirish, aniqlik va taʼsirchanlikni keltirib chiqarish uchun soʻzlovchi nutqida qoʻllamoqda.

Jorj Lakoff hamda Mark Jonson²lar inson ruhiy holatlarini jismoniy oriyentatsiyalarga bogʻlagan holatda metaforalar keltirdilar. Yaʼni ingliz tilida tepaga va yuqoriga maʼnolarini beruvchi soʻzlar va predloglar orqai ham metafora yasash mumkin ekanligi isbotladilar. Masalan:

| | |
|--|---|
| I am feeling up - mening kayfiyatim koʻtarildi |  |
| That boosted my spirits. Bu mening kayfiyatimni koʻtardi. |  |
| My spirits rose . Koʻnglim koʻtarildi. |  |
| You're in high spirits. Siz juda baland ruhdasiz |  |
| Thinking about her always gives me a lift . U haqida oʻylash meni doim xursand qiladi. |  |

¹ Vyvyan Evans and Melanie Green.” Cognitive Linguistics An Introduction” EDINBURGH UNIVERSITY PRESS

² Vyvyan Evans and Melanie Green.” Cognitive Linguistics An Introduction” EDINBURGH UNIVERSITY PRESS


I'm feeling **down**.

I'm **depressed**.

He's really **low** these days.

I **fell into** a depression.

My spirits **sank**. Men ruhan cho'kib qoldim.



Tushkunlikka tushib qoldim

(Lakoff va Johnson, 1980, p. 15)

Yuqorida keltirilganidek, Lakoff va Jonson konseptual metaforani ikki domen: manba va madsadli domenlardan tashkil topgan domenlararo xaritalash deb ham ataydilar. Ular qayd etganidek, konseptual metaforalarni hosil qilishda ikki domen ishtirok etadi. Ular maqsad (Target) domeni- ta'riflanayotgan obyekt va manba-ta'riflash uchun qo'llanilayotgan resurs yoki manba (**Source**) domenlaridir. ¹

Masalan, Love is journey-Sevgi bu sayohat

Sevgi (Love)- maqsad domeni

Sayohat, sarguzasht (Journey)- manba domeni

Shuning uchun tadqiqotchilarning ta'kidlashicha, Bunday holatda metaforik birikma yagona o'xshatish tizimiga ega, ya'ni sevgi sayohatga, sarguzashtga o'xshatilar ekan, maqsad domeni va manba domeni o'z vazifalarini almashishi mumkin emas. Ushbu misolda biz mavjud sevgi konseptini sayohat domeni bilan birlashtirdik ammo sayohat so'zni maqsad domeniga olib chiqqanimizda manba domeni sevgi bo'lmaydi balki boshqa so'z ishlatiladi.

Lakoff and Turner ² keyinchalik shuni aniqlashdiki, yagona struktur tizim bir xil domenlarga ega bo'lgan birliklarda ham saqlanib qoladi. Masalan,

Odam-mashina; Mashina-odam

People are machines:

a. John always gets the highest scores in maths; he's a *human calculator*.

Jon har doim matematika fanidan eng baland baholar oladi. U "Kalkulyator odam"

b. He's so efficient; he's *just a machine!*

U juda ephil; u shunchaki mashina.

c. He has a *nervous breakdown*.

Unda ruhiy buzilish bor yoki uning asabi buzildi.

Machines are people:

a. I think my computer hates me; it keeps *deleting my data*.

¹ Vyvyan Evans and Melanie Green. "Cognitive Linguistics An Introduction" EDINBURGH UNIVERSITY PRESS

² Vyvyan Evans and Melanie Green. "Cognitive Linguistics An Introduction" EDINBURGH UNIVERSITY PRESS

O‘ylashimcha mening kompyuterim meni yomon ko‘radi; u doim ma‘lumotlarimni o‘chirib yuboryapti.

b. This car has *a will of its own!*

Ushbu mashinaning o‘z xohishi bor!

c. I don’t think my car *wants to start* this morning.

Men mashinam bugun yurishni xohlaydi deb o‘ylamayman.

Ushbu ikki metaforalar bir-birining aksi bo‘lib ko‘rinsada, ular turli xaritalash tizimini o‘z ichiga oladi. Ya’ni birining vazifasi ikkinchisiga ko‘chmoqda, Odam-mashina metaforalari komputerning mexanik funksional vazifasi ya’ni tezlik, unumlilik, buzilib qolish xususiyatlari odamlarga ko‘chgan bo‘lsa, mashina-odam metaforasida insonlarga xos his- tuyg‘ular, xohish-iroda jonsiz metalga ko‘chmoqda. Har ikki holatda ham bir domainlar ishtirok etyotgan bo‘lsada, ular tabiatan har xil va turli strukturaga ega.

Ba’zi holatda bir maqsad domeni ikki va undan ortiq manba domenlariga ham ega bo‘lishi mumkin. ¹

Masalan,

a. Navruz is **approaching**. Navruz kelyapti.

b. **We’re moving towards** Navruz. Navruzga yaqinlashyapmiz.

c. Navruz **is not very far away**. Navruz uzoq emas.

O‘zbek va ingliz tillarida konseptual metaforalarning o‘xshash yoki mantiqiy jihatdan bir-biriga yaqin jihatlarini ko‘rishimiz mumkin. J. Lakoff va M. Jonsonlarning fikriga ko‘ra metaforaning 3 turi mavjud:

- Joylashuviga ko‘ra
- Structurasiga ko‘ra
- Ontologik ²

Oriyentatsiyaviy metafora

Har bir tur o‘z vazifa va xususiyatiga ega. Joylashuviga ko‘ra (ba’zi manbalarda oriyentatsiyaviy deb ham ataladi) metafora ma’lum bir jismning joylashish o‘rni metaforik birlik yasash uchun qo‘llaniladi. Har ikki tilda oriyentatsiyaviy metaforalar mavjud va asosan predloglar orqali ifodalanadi.

- Up or down- yuqori yoki past
- In or out- ichida yoki tepasida
- Front or back – ortida

¹ Vyvyan Evans and Melanie Green. ‘‘Cognitive Linguistics An Introduction’’ EDINBURGH UNIVERSITY PRESS

² Vyvyan Evans and Melanie Green. ‘‘Cognitive Linguistics An Introduction’’ EDINBURGH UNIVERSITY PRESS

- On or off- yoniq yoki o'chiq
- Deep or shallow- chuqur yoki sayoz
- Central or peripheral- markaziy yoki chekka

Masalan,

I am **up**- Men xursandman deb tarjima qilinadi. Ingliz tilida ishtirok etayotga **up** predlogi narsalarning joylashuviga ishlatiladi ammo bu yerda kayfiyati yaxshi ekanligi, xursandligini ifodalanmoqda. Xuddi, O'zbek tilida boshim osmonga yetdi, yuqori kayfiyatda metoralarida ishtirok etganidek. Yoki I am down- kayfiyatim tushib ketdi. Bunday turdagi metaforalarni o'zbek tilida ham ko'p uchratishimiz mumkin. Masalan:

- U qayg'u **ichida** edi
- Uning **ortida** ulkan tog'i- otasi qo'llar edi
- Chuqur** xayolga botgan Naima yoniga singlisi kelganini ham payqamadi.
- Kelajaging oldinda, o'tmishing esa ortda qoldi

Struktural metafora (strukturaviy deb ham nomlanadi)

Bunday turdagi metaforalar mavjud murakkab yoki abstract tushunchani boshqa bir konkret aniq tushuncha orqali aniqlashtiradi. Ya'ni manba domeni maqsad domenini izohlaydi, tinglovchi uchun tushunarli bo'lishini ta'minlaydi. Ingliz tilida ma'lum bir kontekstda ishlatiladigan so'zlar boshqa bir kontekstda ko'chma ma'noda qo'llaniladi.

Masalan,

- Argument is a war- bahs munozarada urush kontekstidagi so'zlar qo'llaniladi
- Time is money – pul bilan ishlatiladigan so'z esa vaqt kontekstida qo'llaniladi
- Relationship is journey- munosabatlar esa sayohat bilan
- Mind is machine- miyya mashinaning xususiyatlari bilan
- Emotion is location- emotsiya joylashinuviga ko'ra
- Anger is a heat- jahl bu qaynoqlik bilan
- Desire is hunger- xohish ochlik bilan
- Intelligence is light- ilm yorug'lik bilan
- Hope is a child- umid bola bilan boshqa bir konteks yangi ma'no yaratadi.

Masalan, Ingliz va o'zbek tillarida urush kontekstida ishlatiladigan so'zlar bahs-munozarada ishlatiladi

- He **won** the argument. U bahsda yutdi/ g'alaba qozondi
- He **attacked** everything I said. U har bir aytgan gapimga qarshi hujumga o'tdi
- His criticisms were **right on target**. Uning tanqidlar maqsadga muvofiq edi, to'g'ri kelar edi.

- I **demolished** his argument. Men uning baxsini yo‘q qildim
- That was a **poor strategy**. U juda yomon strategiya edi
- He **destroyed** me in that argument. U meni bahsda buzib tashladi
- You **disagree**- siz qarshisiz

Yuqorida keltirilgan qora harflardagi metaforalarda u haqiqatdan ham sizga hujum qilmaydi, qarshi chiqmaydi, yoki mag‘lub qilmaydi, g‘alaba qozonmaydi. Ya‘ni biz urushning qonun qoidalarini baxsning qonun-qoidalariga ko‘chiryapmiz. Natijada ikkisida ham

- ✓ G‘alaba va mag‘lubiyat
- ✓ Raqib
- ✓ Raqobat
- ✓ Qo‘lga kiritamiz yoki yo‘qotamiz
- ✓ Reja va strategiyalar
- ✓ jismoniy urush- nutqiy urush

Keling yana boshqa misollar bilan ham tanishib chiqamiz. **Time is money**- pul bilan ishlatiladigan fe‘llar vaqtga ko‘chadi

- How did **spend** your time yesterday- kech vaqtingni qanday sarflading
- You are **wasting** your time- sen vaqtingni behuda ishlatyapsan, sarflayapsan.
- This book can **save** you lots of time- bu kitob sening ancha vaqtingni tejaydi
- I am **running out** of time-mening vaqtim tugayapti.

Ontologik metaforalar

Bunday turdagi metaforalar mavhum abstrakt bo‘lgan obyektни aniqlashtiradi, jonlatiradi. Masalan, Insonlar qila oladiga ishlar, qobilyatlar jonsiz narslarga ko‘cha xuddi personikatsiyadek.

○ His theory **explained** to me the behavior of chickens raised in factories. Uning nazariyasi menga shuni **tushuntirdiki**, tovuqlarning xulq atvori fermada shakllanar ekan.

- Life has **cheated** me. Hayot meni **aldadi**.
- Inflation is **eating up** our profits. Inflatsiya bizning foydalaimizni **yeb tashlayapti**.

Yoki o‘zbek va ingliz tillarida mavjud jahl-olov: anger in fire metaforik birikmasini olaylik.

Ikki o‘g‘il ikki yoqdan yopishdi otasiga, g‘azab lov-lovyonar edi ikkovining ko‘zida.

G‘azab o‘ti oldin egasini yondiradi, keyin uchquni dushmanlariga yo yetadi, yo yetmaydi.

Odatda, g‘azab olovi ostida bu olovni ushlab turadigan o‘tlar bor.

Ingliz tilida

The new regulation kindled the ire of the local people (Yangi tartib mahalliy aholining g‘azabini qo‘zg‘atdi)


He incited the mob with an inflammatory speech. She was burning with anger. (U olomoni g‘azablantiradigan nutq bilan qo‘zg‘atdi. U g‘azabdan yonardi)

He was spitting fire (U olov tupurardi)

O‘zbek va ingliz tillarida metaforalarning o‘xshash jihatlar ko‘p. Masalan, quyidagi rasmlarda ko‘rishimiz mumkin. (qarang: rasm 1 va 2).


1-rasm

O‘XSHASHLIK



FARQ

2-rasm



Bunda (**1-rasm**) metaforalarni har ikki tilda mavjudligi tarjimonga hech qanday qiyinchilik keltirib chiqarmaydi.

Undan tashqari ingliz tilidan o‘zbek tiliga quyidagi metaforik birliklarni tarjima qilar ekanman, deyarli bir ma’noda ekanligini guvohi bo‘ldim.

- My mom has a heart of gold. Oyimning qalbi tilla
- My friend’s sister, Sharon, is a night owl. Mening do‘stimning singlisi Sharon tunggi ukki/ boyo‘g‘li

- My hands were icicles because of the cold weather. Havo juda sovuqligi sababli qo‘llarim muzladi.

- Ali has a stone heart. Alining yuragi tosh.

- You have ideas flowing one after the other. Senda ketma-ket g‘oyalar quyilib kelmoqda. Your mind is an ocean. Miyyang okean.

- She was an autumn leaf. U kuzgi xanonrezgi edi.

- He is a lion when he comes to the field. U dalaga kelganda sher edi.

Xulosa

Kontseptual metafora nafaqat tilning uslubiy xususiyati, balki bu fikrning o‘zidir ya’ni inson ongida avtomatik tarzda ishlab chiqariladigan fikrlar majmuasidir. U ham badiiy adabiyotda ma’lum janrlarni shakllantiruvchi, shoir-u yozuvchilarning eng muhim badiiy quroli, ham barcha til foydalanuvchilari uchun eng neytralidir. Bunday metafora nafaqat dunyodagi ma’lum bir vaziyat haqida xabar berish, gapirish uchun balki, u haqida o‘ylash uchun ham ishlatamiz. Shuning uchun ham u oddiy metaforalardan farqlanadi. Oddiy metaforalarda so‘zlarning ma’no jihati, ta’sichanlik, ikki asosning o‘zaro bogliqligi ahamiyatli bo‘lsa, kontseptual metaforalarda kontsept muhim sanaladi hamda bunda inson tajribasi muhim sanaladi, sababi, asosiy maqsadi ta’sirchanlik yoki bo‘yoqdorlik emas balki, ma’lum bir mavhum kontseptlarni aniqlashtirish va tushunishga yordam beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Deignan, A., Gabrys, D., & Solska, A. Teaching English metaphors using cross linguistic awareness-raising activities // ELT Journal. – 1997. - 51(4). – p. 352-360.

2. Lakoff, G. Metaphors We Live by / G. Lakoff, M. Johnson. — Chicago, 1980. — 242 p. — Text:unmediated.

3. Mandelblit N. The cognitive view of metaphor and its implications for translation theory. Translation and Meaning, Part 3. – Maastricht: Universitaire Press, 1995. – p. 483-495.

4. Hozirgi o'zbek adabiy tili.2-kitob. A. Nurmonov, A. Sobirov, Sh. Yusupova; ILM ZIYO» TASHKENT-2016.
5. 90+ Metaphor Examples in Literature That You Need to Know 19 october 2018.
6. Metaphor - Literary Terms *literaryterms.net* › *metaphor*
7. What is A Metaphor? —Definition and Examples | Grammarly
www.grammarly.com › *blog*
8. Сайфуллаева Р. в.б. Ҳозирги ўзбек адабий тили. Ўқув қўлланма. – Тошкент, 2006.
9. Qilichov E. Matnning lingvistik tahlili. – Вухоро, 2000.
10. Турсунов У., Мухторов Ж., Раҳматуллаев Ш. Ҳозирги о'збек адабий тили. – Тошкент, 1992.
11. Vyvyan Evans and Melanie Green.” Cognitive Linguistics An Introduction” EDINBURGH UNIVERSITY PRESS.
12. Mo'minov, Sh.S. (2022). Memuar, bag'ishlov va marsiyalarda rahbar muloqot xulqiga xos qirralarning namoyon bo'lishi. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 1(9), 689-694.
13. Mўминов, Ш.С. (2022). Раҳбар нутқининг таъсир ўтказиш усуллари. *Central Asian Research Journal For Interdisciplinary Studies (CARJIS)*, 418-426.
14. Mo'minov, S. (2022). Alisher Navoi-about the State and its Governance. *EUROPEAN MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF MODERN SCIENCE*.
15. Муминов, С. М., & Мўминов, Ш. С. (2022). ШАХС МАЪНАВИЯТИНИ ЎСТИРИШДА РАҒБАТНИНГ ЎРНИ ВА УНИНГ РАҒБАР МУЛОҚОТ ХУЛҚИДА НАМОЁН БЎЛИШИ. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(Special Issue 23), 689-696.
16. Mo'minov, S. (2022). Мулоқот ва замонавий раҳбар маънавияти. *Scienceweb academic papers collection*.